



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

2023-2024-o'quv yili uchun 8-9-sinflarning Davlat va huquq asoslari fanidan darslik hamda o'quv-metodik majmualarning maketlarini yaratish ishlarini tashkillashtirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-son Farmoni bilan tasdiqlangan Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 84-bandida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda 2023-2024-o'quv yili boshlanguniga qadar o'quvchilarga yangi tahrirdagi Konstitutsiyani o'rgatish bo'yicha zamonaviy metodikaga asoslangan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yaratish ishlarini jadallashtirish maqsadida **buyuraman**:

1. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining 8-9-sinf o'quvchilari uchun Davlat va huquq asoslari fanidan darslik hamda o'quv-metodik majmualarning original maketlari ishlab chiqilib, nashrga tayyorlansin.

2. Quyidagilar:

2023-2024-o'quv yili uchun tayyorlanadigan 8-9-sinflarning Davlat va huquq asoslari fanidan darslik hamda o'quv-metodik majmualarning original maketlari ro'yxati va ularning texnik tafsilotlari 1-ilovaga muvofiq;

mazmunan va texnik jihatdan chop etishga tayyor holdagi darslik hamda o'quv-metodik majmualarning original maketlarini Respublika ta'lif markazidan qabul qilish bo'yicha ishchi guruh (keyingi o'rnlarda – ishchi guruh) tarkibi 2-ilovaga muvofiq;

mazmunan va texnik jihatdan chop etishga tayyor holdagi darslik hamda o'quv-metodik majmualarning original maketlarini topshirish-qabul qilish bo'yicha dalolatnomasi namunasi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva) Respublika ta'lif markazi (Sh.Sattorov) bilan birgalikda Respublika ta'lif markazi tomonidan yaratiladigan 8-9-sinflarning Davlat va huquq asoslari fanidan darslik hamda o'quv-metodik majmualarning original maketlarini yaratish va xarid qilish yuzasidan o'rnatilgan tartibda shartnomalar imzolanishini ta'minlasin.

4. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (F.Jamuratova) imzolangan shartnomasi asosida Respublika ta'lif markaziga o'rnatilgan tartibda to'lovlarni amalga oshirsin.

Bunda, darslik hamda o'quv-metodik majmualarning original maketlarini yaratish bo'yicha xarajatlar (shu jumladan, muallif gonorari, nashr va ekspertiza

xarajatlari hamda boshqalar) joriy yil uchun ushbu maqsadlarga Davlat budgetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi.

5. Respublika ta’lim markazi (Sh.Sattorov)ga:

2023-yilning 1-avgustiga qadar 8-9-sinflarning Davlat va huquq asoslari fanidan darslik hamda o‘quv-metodik majmualarning original maketlarini tayyorlash;

yaratiladigan har bir darslik hamda o‘quv-metodik majmualarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ta’lim muassasalari uchun matbaa mahsulotlari xavfsizligi talablarini belgilashning umumiy texnik reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2022-yil 28-dekabrdagi 726сон qarorida belgilangan parametrlerga mos kelishi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi hamda O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining hamda mazmuni bo‘yicha ekspert guruhining ijobjiy xulosalarini olish;

darslik hamda o‘quv-metodik majmualarning original maketlarini chop etadigan matbaa korxonalari tomonidan majmualarda texnik yoki mazmunga doir xato va kamchiliklar aniqlangan taqdirda, Respublika ta’lim markazi tomonidan bepul tuzatish vazifalari yuklatilsin.

6. Ishchi guruhga:

Respublika ta’lim markazi tomonidan yaratilgan, mazmunan va texnik jihatdan chop etishga tayyor holdagi 8-9-sinflarning Davlat va huquq asoslari fanidan darslik hamda o‘quv-metodik majmualarning original maketlarining tasdiqlangan nusxasi va elektron variantini o‘rnatilgan tartibda qabul qilib olish;

chop etishga tayyor holdagi darsliklar hamda o‘quv-metodik majmualarning original maketlarini topshirish-qabul qilish bo‘yicha dalolatnomalarni rasmiylashtirish vazifalari yuklatilsin.

7. O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi (D.Norboyeva)ga qabul qilib olingan darslik hamda o‘quv-metodik majmualarning original maketlarini jamlash va saqlash vazifalari yuklatilsin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil 12-iyul,
204 -son